



“Geografik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida”gi Qonun

O‘RQ–757-son, 03.03.2022-y.)

Geografik ko'rsatkich

Geografik ko'rsatkich tovarni muayyan geografik obyekt hududidan kelib chiqqan tovar sifatida **identifikatsiyalovchi belgi**





Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual
mulk agentligi geografik ko'rsatkichlarni
huquqiy jihatdan muhofaza qilish
sohasidagi **vakolatli davlat organidir**

Geografik ko'rsatkich muayyan geografik obyektida joylashgan va ushbu obyektning nomidan o'zi ishlab chiqarayotgan tovarni belgilash uchun foydalanayotgan bir necha yuridik yoki jismoniy shaxsning **talabnomasiga ko'ra ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin**



Talabnomaning **davlat ekspertizasi** Agentlik tomonidan amalga oshiriladi hamda u rasmiy ekspertizani va talabnomada ifodalangan belgining ekspertizasini o'z ichiga oladi

Talabnomaning **rasmiy ekspertizasi** talabnoma Agentlikka berilgan sanadan e'tiboran **15 kunlik muddatda** amalga oshiriladi





Talabnomada ifodalangan **belgining ekspertizasi** talabnoma ko'rib chiqish uchun qabul qilinganligi to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan keyin **1 oy ichida** o'tkaziladi



Davlat ekspertizasi natijalari asosida Agentlik geografik ko'rsatkichni yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini reestrda ro'yxatdan o'tkazishni patent boji to'langanligi haqidagi hujjat olingan sanadan e'tiboran **3 ish kunida** amalga oshiradi

Geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnoma uning egasining geografik ko'rsatkichdan guvohnomada ko'rsatilgan tovar turiga nisbatan foydalanish huquqini tasdiqlaydi



Guvohnoma geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi reestrda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin **3 ish kuni ichida** Agentlik tomonidan beriladi



Guvohnoma talabnoma berilgan sanadan e'tiboran **10 yil davomida** amal qiladi

Geografik ko'rsatkichlarni yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish uchun **patent bojlari** olinadi



Yuridik va jismoniy shaxslar geografik ko'rsatkichni boshqa davlatlarda ro'yxatdan o'tkazishga **haqli**

**Эътиборингиз
учун раҳмат!**

